

**Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligida 2024-yil davomida korrupsiya
faktlariga doir murojaatlarni koʻrib chiqish
natijalari haqidagi
HISOBOT**

Kon-geologiya vazirligining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar toʻgʻrisida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va koʻrib chiqish Reglamenti talablari asosida 2024-yilda aloqa kanallari orqali korrupsiyaga oid 4 ta murojaat kelib tushgan.

1. Joriy yilning aprel oyida fuqaro “I.I.B” va “Oʻzbekgeofizika” AJ “Buxoro geofizika ekspeditsiyasi” filiali ishchi xodimlari tomonidan murojaatlar kelib tushgan.

Mazkur murojaatlarda “Oʻzbekgeofizika” AJ “Buxoro geofizika ekspeditsiyasi” filiali masʼul xodimi “Oʻ.J.A.” moliya va buxgalteriya boʻlimlari rahbarlariga oʻziga yaqin insonlar quyilganligi natijasida ishga kelmayotgan xodimlardan pul olish evaziga noqonuniy ish haqi yozilayotganligi, qora metall parchalarini yigʻish bahonasida har bir xodimdan bir kilogrami uchun 2,5-3,0 ming soʻmdan naqd pul mablagʻlari yigʻilayotganligi, manan eskirgan avtoransport vositalarini hisobdan chiqarib, sotib yuborilayotganligi, avtotransport vositalaridagi kuzatish moslamalari (GPS) qasddan ishdan chiqarilib, yoqilgʻi-moylash mahsulotlari talon-taroj qilinayotganligini maʼlum qilishgan.

2024-yilning 16-23-aprel kunlari oʻtkazilgan xizmat tekshiruvi davomida ishga kelmayotgan xodimlardan pul olish evaziga noqonuniy ish haqi yozilayotganligi, qora metall parchalarini yigʻish bahonasida har bir xodimdan bir kilogrami uchun 2,5-3,0 ming soʻmdan naqd pul mablagʻlari yigʻilayotganligi, manan eskirgan avtoransport vositalarini hisobdan chiqarib, sotib yuborilayotganligi, avtotransport vositalaridagi kuzatish moslamalari (GPS) qasddan ishdan chiqarilib, yoqilgʻi-moylash mahsulotlari talon-taroj qilinayotganligini toʻgʻrisidagi maʼlumotlar oʻz tasdigʻini topmadi.

Shu bilan birga, Buxoro geofizika ekspeditsiyasi filialida oʻzaro yaqin qarindosh boʻlgan xodimlarda potensial manfaatlar toʻqnashuvi va korrupsiogen xavf-xatarlar aniqlash boʻyicha “Oʻzbekgeofizika” AJga topshiriq xati yuborildi.

2. 2024-yilning mart oyida “Regionalgeologiya” DM xodimi “Gʻ.M.S.”dan kelib tushgan murojaatda uning javobgarligida boʻlgan tovar moddiy boyliklari kamomadini yashirish maqsadida mazkur davlat muassasi maʼsul xodimi “T.Z.B.” undan pul mablagʻlari talab qilganligini maʼlum qilgan.

2024-yilning 19-30-mart kunlari oʻtkazilgan xizmat tekshiruvi davomida 1,6 mlrd. soʻmlik tovar moddiy boyliklari kamomadi hujjatlashtirildi va mazkur holatga qonuniy baho berish uchun huquq-tartibot organlariga yuborildi. Hozirgi kunda yetkazilgan zararni qoplash maqsadida tergov-surishtiruv ishlari davom etmoqda.

3. 2024-yilning oktyabr oyida fuqaro “X.Z.M.” oʻz murojaatida “Geologiya fanlar universiteti” DMda uning qizi “X.B.B.” dars berib kelayotganligi, lekin kafedra mudri “T.N.” moddiy manfaat evaziga qizining oʻrniga “Hemis” dasturiga kirib talabalarining baholarini oʻzgartirayotgani maʼlum qilgan.

Mazkur holat bo'yicha "Geologiya fanlar universiteti" DM mas'ul xodimlari ishtirokida xizmat tekshiruvi o'tkazilgan. Xizmat tekshiruvi davomida yakuniy nazoratdan o'ta olmagan 19 nafar talaba qayta topshirish davrida "X.B.B." betobligi sababli, ayrim talabalarga kafedra mudri "T.N." tomonidan baho qo'yilganligini va uning harakati amaldagi tartib-taomillarga muvofiqligi aniqlangan.

4. 2024-yil 2-dekabr kuni "Maroqand Fodd Baraka Savdo" MCHJ rahbari "A.M.U." o'z murojaatida "Navoiyuran" DK bilan 2024-yil 8-iyul kuni tuzilgan 1077492-sonli shartnoma asosida yetkazib berilgan mahsulotlarni kirim hujjatlari o'z vaqtida rasmiylashtirishda va to'lovni amalga oshirishda turli xil qarshilik va suniy to'siqlarga uchraganligini ma'lum qilgan.

Ushbu murojaatni o'rganish jarayonida ma'lum bo'lishicha, "Maroqand Fodd Baraka Savdo" MCHJ tomonidan yetkazib berilgan texnologik qurilmalarda "Navoiyuran" DK mutaxassisleri tomonidan kamchiliklar borligi aniqlangan.

Shundan so'ng, 2024-yilning 12-dekabr kuni "Maroqand Fodd Baraka Savdo" MCHJ rahbari "A.M.U." 01/12-12-sonli xati bilan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ushbu murojaatni ko'rib chiqishni to'htatishni so'ragan.